

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ichki audit xizmatining
2025-yil 9 oylik faoliyati natijalari bo'yicha
HISOBOTI**

1. Umumiy ma'lumotlar

Fanlar akademiyasi Ichki audit xizmati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda PQ-4938-sonli qarori asosida va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidentining 2021-yil 12-noyabrda 319-170/1-sonli buyrug'i bilan mustaqil bo'lim sifatida byudjetdan tashqari mablag'lar xisobidan 2-shtat birligida tashkil etilgan bo'lib, 2024-yil 1-yanvardan Respublika byudjeti hisobidan saqlashga o'tkazilgan. Bo'limga Rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini taxlil qilish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifadan kelib chiqib, Ichki audit xizmati bo'limi Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan va Xisob palatasi bilan kelishilgan Ish rejasiga asosan shtatda audit faoliyati bilan shug'ullanish sertifikatiga ega bo'lgan ikki xodim faoliyat olib boradi. Fanlar akademiyasi tizimiga qarashli birinchi darajali respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan 45-ta ilmiy muassasa va tashkilotlari mavjud. (1-jadval)

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

2025-yil uchun jami 6-ta ilmiy muassasada rejayiy audit tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan joriy yilning 9 oyida 5 ta ilmiy muassasa va tashkilotda rejayiy hamda 2 ta ilmiy muassasa va tashkilotda rejadan tashqari audit tadbiri o'tkazilishi ta'minlandi va rejada belgilangan ilmiy muassasa va tashkilotda audit tadbirlari o'tkazish 100 foizga bajarilgan. Audit tadbirlari jami 7-ta ilmiy muassasa va tashkilotda o'tkazilgan bo'lib, 113,0 mln.so'mlik moliyaviy xato kamchilik aniqlanib, byudjetga qaytarilishi ta'minlandi.

Masofaviy audit o'tkazilgan ichki audit obyektlari soni 1-ilmiy muassasani tashkil etgan bo'lib, tegishli budjetga tiklangan mablag'lar 7,4 mln.so'mni, oldi olingan (bartaraf etilgan) moliyaviy xato va kamchiliklar jami 11,5 mln.so'mni tashkil etadi.

Ushbu xato kamchiliklar asosan shtat jadvallarida yuqori koeffitsient qo'llanilishi oqibatida kelib chiqqan, moliya iqtisod bo'limiga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, shtat jadvallariga tegishli o'zgartirish kiritish bo'yicha tegishli ko'rsatma berildi.

(2,3,4 va 5 jadvallar)

3. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan audit tadbirlari to'liq va o'z vaqtida bajarilgan. (2-jadval)

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Aniqlangan moliyaviy xato kamchilik bo'yicha Vazirlar Maxkamasining qaror talablariga qat'iy rioya etish va kelgusida qaror talablari asosida faoliyat olib borish, aniqlangan moliyaviy xato kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida takrorlamaslik yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqib taklif va tavsiyalar berildi.

Audit tadbirlari o'tkazilgan ilmiy muassasada berilgan tavsiyalar yechimi bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi o'z vaqtida belgilangan muddatlarda ijrosi ta'minlanib kelinmoqda. (6-jadval)

5. Hisob palatasining "Masofaviy nazorat" AAT orqali kelib tushgan xavf tahlillari.

Xisobot davrida Fanlar akademiyasi va uning quyi tizim ilmiy muassasa va tashkilotlariga Xisob palatasining "Masofaviy nazorat" AAT orqali murojjati kelib tushmadi. (7-jadval)

6. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash va oshirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

-Ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishini ichki audit faoliyatiga oid qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishini ta'minlamoqda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda 3406-sonli ro'yxatdan o'tkazilgan Qo'llanma talablari asosida rasmiylashtirilmoqda.

-Ichki audit tadbirlari natijalari bo'yicha chora-tadbirlar rejasining belgilangan tartibda tuzilib, ijrosi yuzasidan monitoring yuritilib O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda 3406-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Qo'llanma asosida monitoring olib borilmoqda.

-Axborot texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy audit tizimini yo'lga qo'yish 2024-yil 12-iyuldagi PF- 100-son Qarori asosida amalga oshirib kelinmoqda.

-Ichki audit xizmati xodimlarining malakalarini doimiy ravishda oshirib borish choralari ko'rildi va 2025-yil 7-12 sentyabrda malaka oshirishlari ta'minlandi, tegishli tartibda O'quv markazi tomonidan Guvohnoma olindi.

-Ichki audit tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida ichki baholash tizimi 2025-yilning 2-choragidan yo'lga qo'yilgan.

-ichki audit xizmati bo'limida kadrlar zaxirasini tayyorlash uchun, tizimimizdagi faoliyat olib borayotgan yetuk iqtisodchi va bosh xisobchilardan tashkil topgan zaxira kadrlar tanlab olindi.

-2025-yil 3-5-iyun kunlari Fanlar akademiyasi Ichki audit bo'limi xodimlari Chernogoriya mamlakatida Jaxon banki ko'magida tashkil etilgan Davlat moliyasini boshqarish bo'yicha xalqaro xamkorlik ta'lim dasturi (PEMPAL) tomonidan joriy etilgan "Audit amaliyotida" va "Muvofiqlashtirish bo'yicha markaziy ta'limlar uchun chaqiriqlar" mavzusidagi Ichki audit xamjamiyatining yig'ilishida onlayn ishtiroki ta'minlandi va tegishli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

(8-jadval)

7. Davlat organi va tashkiloti tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

Fanlar akademiyasi tizimida byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan ikkita nobyudjet tashkilot mavjud:

-"FAN NASHRIYOTI" DUK -2024-yil may oyida "AFFAT AUDIT" MCHJ- tomonidan auditdan o'tkazilmagan.

-FANUM o'quv markazida bugungi kungacha moliyaviy faoliyat olib borilmaganligi uchun auditdan o'tkazilmagan. (9-jadval)

8. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar (taklif va tavsiyalar)

2025-yil 9 oyida o'rganilgan moliyaviy xato-kamchiliklardan eng ko'p uchrayotgan asosiy xolatlar: byudjet mablag'lari hisobidan ishchi xodimlarga moddiy yordam ko'rsatish, oylik maoshlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar, shtat jadvallarini tegishli

normativ xujjatlarga amal qilmaslik, shtat jadvalida lavozim koeffitsientlarini sun'iy yuqori koeffitsen qo'llash holatlari hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ustama to'lovlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2024-yil 22-oktyabrda 3561-son bilan ro'yhatga olingan Nizom (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 19-sentyabrdagi 176-son buyrug'i) talablariga to'liq amal qilinmagan holda Rag'batlantirish mablag'lari hisobidan moddiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar xolatlari aniqlanmoqda.

Yuqorida keltirilgan eng ko'p uchraydigan va ko'p takrorlanuvchi moliyaviy xato va kamchiliklar bo'yicha Fanlar akademiyasining Moliya va iqtisod va Ichki audit bo'limi xodimlari tomonidan tashkillashtirilgan Fanlar akademiyasi va uning quyi tizim ilmiy muassasa va tashkilotlarimizda 2025-yil 3-choragida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining iqtisodiy o'qishlarni o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan Reja grafigiga asosan "Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarining 2022-2025-yillarda tovarlar va xizmatlar eksporti ko'rsatkichlari" mavzusida joriy yilning 21-iyulida tizimimizdagi ilmiy muassasa va tashkilotlarimiz bosh xisobchi va iqtisodchilari bilan seminar tashkil etildi. Tizimdagi ilmiy muassasa va tashkilotlarning Bosh hisobchi va iqtisodchilarini malakasini oshirib borish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi malaka oshirish O'quv markazi bilan kelishuv imzolash va tegishli o'quv malaka oshirish grafigini ishlab chiqish bo'yicha taklif va ko'rsatmalar berildi. (10-jadval)

9. Davlat organi va tashkiloti faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

Bugungi kunda takliflar mavjud emas.


10. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.


Ichki audit xizmati xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash xamda korrupsiya xolatlarni oldini olish maqsadida mehnatga haq to'lash tizimini qayta ko'rib chiqish va samaradorlik ko'rsatkichlariga muvofiq rag'batlantirib borish tizimini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

11. Ichki audit tuzilmasi xodimlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari

2025-yilning 9 oyida reja bo'yicha 5-ta ilmiy muassas va tashkilotda profilaktika tadbirlari o'tkazilish rejalashtirilgan bo'lib rejaga muvofiq 5-ta ilmiy muassasada va rejadan tashqari 2-ta ilmiy muassasa va tashkilotlarda profilaktika tadbiri o'tkazildi. 9 oylikda 1-ta ilmiy muassasada masofaviy profilaktika tadbiri amalga oshirildi. Reja asosidagi tadbirlar natijasida bo'yicha taklif va tavsiyalar o'z vaqtida berildi va natijalar bajarilishi bo'yicha monitoring olib borilyapti. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligi Ko'rsatkichlar kesimida bo'yicha Yig'ma ko'rsatkich 70% tashkil etadi.

(11, 11.1, 11.2, 11.3 va 11.4-jadvallar).


Ichki audit xizmati rahbari
(FIO.)


(imzo)


(kun, oy, yil)

Izoh. Hisobot ichki audit xizmati tomonidan har bir qism bo'yicha bayon etiladi. Agar ichki audit xizmati faoliyatida birorta qismi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, mazkur qismda "tegishli ma'lumotlar mavjud emas" yozuvi bilan ko'rsatiladi. Hisobotning hajmi bo'yicha chegara mavjud emas.

Hisobotga tegishli javdallar ilova qilinadi.

Shuningdek, ichki audit xizmati tomonidan hisobotga davlat organi va tashkiloti ichki audit faoliyatiga oid qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmatining shtat birliklari
to‘g‘risida
MA’LUMOT**

01.10.2025-yil

T/r	Tizimdagi tashkilotlar soni	Ichki audit xizmatlari shtat birliklari soni		
		jami	markaziy apparatda	budjet tashkilotlari darajasida
1	45	2	2	

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati yillik rejasining 2025-yil 9 oylikda bajarilishi to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r		Hisobot davrida o‘tkazilgan jami ichki audit tadbirlari		Ichki audit yillik rejasida					Rejadan tashqari							
				Hisobot davrida ichki audit yillik rejasiga kiritilgan ichki audit tadbirlari		Ichki audit yillik rejasida hisobot davrida o‘tkazilgan ichki audit tadbirlari		Yillik rejaning hisobot davrida bajarilishi, foizda	Hisobot davrida jami o‘tkazilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlari		shundan					
											fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali aniqlangan		budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi faktlari to‘g‘risida ma’lumotlar asosida		boshqa holatlarda	
		tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni		tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Ichki audit tadbirlari	7	7	5	5	5	5	100%	2	2					2	2
Jami		7	7	5	5	5	5	100%	2	2	0	0	0	0	2	2

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmatining 2025-yil 9 oylikdagi faoliyati umumiy natijalari to'g'risida
MA'LUMOT

mln so'mda

T/r		O'tkazilgan ichki audit tadbirlarida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar				Tegishli budjetga tiklangan mablag'lar				Huquqiy baho berish uchun vakolatli organlarga yuborilgan holatlar				Ichki audit natijasiga ko'ra intizomiy jazo qo'llanilgan xodimlar soni	shundan		
		tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi		Hayfsan	Jarima	Lavozi- midan ozod etish
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1	Ichki audit tadbirlari	7	7	38	113,0	7,0	7,0	38,0	113,0					0			
	Jami	7	7	38	113,0	7	7	38	113,0	0	0	0	0	0	0	0	0

Izoh. Jadvalda ichki audit tadbirlari natijalari haqidagi ma'lumotlar yo'nalishlar, sohalar kesimida ko'rsatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati tomonidan 2025-yilning 9 oyligida profilaktika tadbirlari natijasida
oldi olingan (bartaraf etilgan) samarasiz xarajatlar to'g'risida
MA'LUMOT

mln so'mda

T/r		Profilaktika tadbirlari natijasida oldi olingan (bartaraf etilgan) samarasiz xarajatlar				shundan											
						Noqonuniy xarajatlarning oldi olingan				Maqbullashtirilgan mablag'lar				Uslubiy xatoliklar			
		tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1	Profilaktika tadbirlari	7	7	4	63,5	7	7	4	63,5								
	Jami	7	7	4	63,5	7	7	4	63,5	0	0	0	0	0	0	0	0

Izoh. Jadvalda profilaktika tadbirlari natijalari haqidagi ma'lumotlar yo'nalishlar, sohalar kesimida ko'rsatilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati tomonidan 2025-yilning 9 oyligida
o‘tkazilgan masofaviy audit natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOT

mln so‘mda

T/r		Masofaviy audit o‘tkazilgan ichki audit obyektlari soni	Masofaviy audit orqali aniqlangan shubhali operatsiyalar bo‘yicha o‘tkazilgan ichki audit tadbirlari natijalari		shundan					
					Oldi olingan (bartaraf etilgan) moliyaviy xato va kamchiliklar		Tegishli budjetga tiklangan mablag‘lar		Huquqiy baho berish uchun vakolatli organlarga yuborilgan holatlar	
			obyektlar soni	summasi	obyektlar soni	summasi	obyektlar soni	summasi	obyektlar soni	summasi
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Masofaviy audit tadbirlari	1	1	18,9	1	11,5	1	7,4		
Jami		1	1	18,9	1	11,5	1	7,4	0	0

Izoh. Jadvalda masofaviy audit tadbirlari natijalari haqidagi ma’lumotlar yo‘nalishlar, sohalar kesimida ko‘rsatilishi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati tomonidan 2025-yilning 9 oyligida berilgan taklif va tavsiyalar
hamda ularning bajarilishi to‘g‘risida
MA’LUMOT**

T/r		Hisobot davrida o‘tkazilgan jami ichki audit tadbirlari		shundan			
				Ichki audit yillik rejasi asosidagi ichki audit tadbirlari natijasida berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi		Rejadan tashqari ichki audit tadbirlari natijasida berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi	
		tadbirlar soni	obyektlar soni	takliflar soni	bajarilishi	takliflar soni	bajarilishi
A	1	2	3	4	5	6	7
1	Taklif va tavsiyalar	7	7	5	5	2	2
	Jami	7	7	5	5	2	2

Izoh. Jadvalda taklif va tavsiyalar haqidagi ma’lumotlar yo‘nalishlar, sohalar kesimida ko‘rsatilishi mumkin.

7-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga 2025-yilning 9 oyigida "Masofaviy nazorat" AAT orqali kelib tushgan
va tasdig‘ini topgan xavflar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

mln so‘mda

T/r	Xavf omillari nomi	Aniqlangan xavflar		Tasdig‘ini topgan xavflar	
		soni	summasi	soni	summasi
1	Хавфлар мавжуд эмас	0	0,0	0	0,0

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati faoliyatining sifatini baholash natijasida berilgan taklif va tavsiyalar bo‘yicha
2025-yilning 9 oyligida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

T/r	Baholash natijasida berilgan taklif va tavsiyalar	Amalga oshirilgan ishlar	Bajarilgan muddati	Asosi
1	Ichki audit tadbirlarining o‘tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishini ichki audit faoliyatiga oid qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash.	Ichki audit tadbirlarining o‘tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishini Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasiga muvofiq amalga oshirishi belgilandi.	doimo	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3406
2	Ichki audit tadbirlari natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining belgilangan tartibda tuzilishi, ijrosining bajaralishi hamda ijrosi yuzasidan monitoring yuritilishini ta’minlash;	Ichki audit tadbirlari natijalari bo‘yicha chora tadbirlar rejasining belgilangan tartibda tuzish, ijrosining bajaralishi hamda monitoring yuritib borish taminlandi.	Ichki audit tadbirlari natijalaridan keyin	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3406
3	Qonunchilik hujjatlarining buzilishi holatlarining oldini olish (profilaktika) tizimini yo‘lga qo‘yish.	O‘rganish tahlillaridan kelib chiqib, xato va kamchiliklarning oldini olishga (profilaktikaga) qaratilgan tizimni yo‘lga qo‘yish belgilandi.	doimo	2024-yil 12-iyuldagi PF-100-son
4	Axborot texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy audit tizimini yo‘lga qo‘yish.	masofaviy profilaktika tadbirlar tizimini yo‘lga qo‘yiladi.	doimo	2024-yil 12-iyuldagi PF-100-son

*Baholash natijasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi ijrosi bayon etiladi.

mln so 'mda

[illegible]

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati tomonidan 2025-yilning 9 oyligida aniqlangan tizimli xavflar
va ularning oldini olish (bartaraf etish) bo'yicha
TAKLIFLAR**

T/r	Tizimli xavflar mazmuni	Tizimli xavflarning oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar (takliflar)	Izoh (taklif va tavsiyalarning asoslanishi)
Moliyaviy xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha			
1	Fanlar akademiyasi tizimidagi barcha bosh xisobchi va iqtisodchilari bilan tizimli takrorlanuvchi moliyaviy xato- kamchiliklarni oldini olish bo'yicha seminar tashkil etish.	2025-yil 1-yarim yillik yakuni bo'yicha seminar tashkillashtirildi.	2025-yil 20-iyulda bo'lib o'tdi.
2	Fanlar akademiyasi quyi tizimidagi barcha bosh xisobchi va iqtisodchilarini malakasini oshirish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi malaka oshirish O'quv markazi bilan kelishuvga erishish.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi malaka oshirish O'quv markazining 2026-yilgi O'quv rejasiga kiritish bo'yicha maslahatlshuv olib borilmoqda.	2026-yil 1-2-choragida amalga oshiriladi.
3			
...			
Budjet hisobini tashkil etish va yuritish bo'yicha			
1			
...			
Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlarning ijrosini baholash bo'yicha			
1			
...			
Ichki audit xizmati faoliyati hamda u faoliyat yuritayotgan tizimlarni (shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanish) yanada takomillashtirish bo'yicha			
1			
...			

Izoh: Qo'shimcha takliflar mavjud bo'lgan taqdirda qo'shimcha kiritiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil III chorakdagi faoliyati samaradorligi
Yig‘ma ko‘rsatkichlari**

T/r	Ichki audit xizmati xodimlari FIO	Lavozimi	Ko‘rsatkichlar kesimida				Yig‘ma ko‘rsatkich	Berilgan baho
			Budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olishdagi natijalar	Masofaviy nazoratni amalga oshirishdagi natijalar	Ichki audit yillik rejasida xodim mas’ul bo‘lgan ichki audit tadbirlarining o‘tkazilishi	Berilgan taklif va tavsiyalarning ijrosi		
1	Yu.Sh.Xajiyev	Xizmat boshlig‘i*	30%	0%	20%	20%	70%	qoniqarli
2	E.S.Ergashev	Bosh mutaxassis	30%	0%	20%	20%	70%	qoniqarli

**Izoh: Ichki audit xizmati rahbari faoliyatining samaradorligi ushbu ko‘rsatkichlar asosida ichki audit xizmatining hisobot davridagi natijalaridan kelib chiqib hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil III chorakdagi budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi
holatlarining oldini olishdagi natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOT

mln so‘mda

T/r	Ichki audit xizmati xodimlari FIO	Lavozimi	2024-yilning III choragida o‘tkazilgan profilaktika natijasi		2025-yilning III choragida o‘tkazilgan profilaktika natijasi		Belgilangan vazn	Profilaktika natijalari ko‘rsatkichi (foizda)
			holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi		
1	Yu.Sh.Xajiyev	Xizmat boshlig‘i*	0	0	3	3,6	0,3	30%
2	E.S.Ergashev	Bosh mutaxassis	0	0	3	3,6	0,3	30%

**Izoh: Ichki audit xizmati rahbari faoliyatining samaradorligi ushbu ko‘rsatkich asosida ichki audit xizmatining hisobot davridagi natijalaridan kelib chiqib hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil III chorakdagi masofaviy nazoratni
amalga oshirishdagi natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOT

mln so‘mda

T/r	Ichki audit xizmati xodimlari FIO	Lavozimi	2024-yilning III choragida o‘tkazilgan masofaviy nazorat natijasi		2025-yilning III choragida o‘tkazilgan masofaviy nazorat natijasi		Belgilangan vazn	Masofaviy nazorat natijalari ko‘rsatkichi (foizda)
			holatlar soni	summasi	holatlar soni	summasi		
1	Yu.Sh.Xajiyev	Xizmat boshlig‘i*	0	0	0	0	0,3	0%
2	E.S.Ergashev	Bosh mutaxassis	0	0	0	0	0,3	0%

**Izoh: Ichki audit xizmati rahbari faoliyatining samaradorligi ushbu ko‘rsatkich asosida ichki audit xizmatining hisobot davridagi natijalaridan kelib chiqib hisoblanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil III chorakda yillik rejada belgilangan ichki audit tadbirlarining bajarilishi natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Ichki audit xizmati xodimlari FIO	Lavozimi	Ichki audit yillik rejasi asosida		Belgilangan vazn	Yillik rejaning bajarilishi natijalari ko‘rsatkichi (foizda)
			2025-yilning III choragiga belgilangan tadbirlar	2025-yilning III choragida o‘tkazilgan tadbirlar		
1	Yu.Sh.Xajiyev	Xizmat boshlig‘i*	2	2	0,2	20%
2	E.S.Ergashev	Bosh mutaxassis	2	2	0,2	20%

**Izoh: Ichki audit xizmati rahbari faoliyatining samaradorligi ushbu ko‘rsatkich asosida ichki audit xizmatining hisobot davridagi natijalaridan kelib chiqib hisoblanadi.*

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil III chorakda ijro etilishi belgilangan taklif va tavsiyalarining
ichki audit obyektlari tomonidan bajarilishi to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Ichki audit xizmati xodimlari FIO	Lavozimi	Reja asosidagi tadbirlar natijasida berilgan taklif va tavsiyalarining bajarilishi		Rejadan tashqari tadbirlar natijasida berilgan taklif va tavsiyalarining bajarilishi		Belgilangan vazn	Taklif va tavsiyalarining bajarilishi natijalari ko'rsatkichi (foizda)
			takliflar soni	bajarilishi	takliflar soni	bajarilishi		
1	Yu.Sh.Xajiyev	Xizmat boshlig'i*	2	2	1	1	0,2	20%
2	E.S.Ergashev	Bosh mutaxassis	2	2	1	1	0,2	20%

**Izoh: Ichki audit xizmati rahbari faoliyatining samaradorligi ushbu ko'rsatkich asosida ichki audit xizmatining hisobot davridagi natijalaridan kelib chiqib hisoblanadi.*